

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**Qo‘lyozma huquqida
UDK: 330.43(631.14)**

RUXSATOVA RUSHANA O‘KTAMOVNA

**QISHLOQ XO‘JALIGIDA ISHLAB CHIQRISHNING NISBIY
SAMARADORLIGINI STATISTIK BAHOLASH**

08.00.06 – Ekonometrika va statistika
Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun yozilgan
DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: Xatamov Ochildi Qurbonovich
iqtisod fanlari doktori, professor

Toshkent – 2025-yil

MUNDARIJA

	KIRISH.....	3
I BOB.	QISHLOQ XO‘JALIK ISHLAB CHIQUARISHI NISBIY SAMARADORLIGINI STATISTIK BAHOLASHNING ILMIIY-METODOLOGIK JIHLTLARI	
1.1	Qishloq xo‘jaligi rivojlanishi va nisbiy samaradorligini baholashning mazmun-mohiyati.....	10
1.2	Qishloq xo‘jalik samaradorligiga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillar va ularning guruhlari.....	23
1.3	Qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarishini nisbiy samaradorligini baholashni uslubiy takomillashtirish.....	34
	Birinchi bob bo‘yicha xulosa.....	47
II BOB.	O‘ZBEKISTON QISHLOQ XO‘JALIGI ISHLAB CHIQUARISH SAMARADORLIGINI STATISTIK HOLATINI EKONOMETRIK TAHLILI	
2.1	Qishloq xo‘jaligida yalpi ichki mahsulot va qo‘shilgan qiymat dinamikasini baholash.....	49
2.2	Qishloq xo‘jaligi moliyaviy iqtisodiy ko‘rsatkichlarining makroiqtisodiy tahlili.....	59
2.3	Qishloq xo‘jaligida mahsulotlar ishlab chiqarishning nisbiy samaradorligini ko‘p omilli statistik modelini ishlab chiqish.....	71
	Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa.....	85
III BOB.	O‘ZBEKISTON QISHLOQ XO‘JALIGIDA ISHLAB CHIQUARISH NISBIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	
3.1	Qishloq xo‘jaligida mahsulotlar ishlab chiqarishning nisbiy samaradorligini baholash.....	87
3.2	Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishning nisbiy samaradorliginini baholash algoritmi.....	91
3.3	Qishloq xo‘jaligida nisbiy samaradorlik ko‘rsatkichlari prognozini baholash.....	101
	Uchinchi bob bo‘yicha xulosa.....	108
	XULOSA.....	110
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	112
	ILOVALAR.....	120

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda tabiiy va sifatli oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabning keskin o‘sishi sharoitida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish va boshqarishda ilmiy yondashuvlardan kengroq foydalanish, xususan, mahsulotlar nisbiy samaradorligini baholash va prognozlashtirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. “Oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash iqtisodiy rivojlanish darajasi turlicha bo‘lgan mamlakatlar uchun muhim masalaga aylandi, shu bilan bir vaqtda qishloq xo‘jaligi sektori aholini sifatli oziq-ovqat bilan ta‘minlashni yanada yaxshilashda strategik rol o‘ynaydi¹. Ayniqsa axborotlar yetishmovchilik sharoitida qishloq xo‘jalik rivojlanishini modellashtirish orqali statistik baholashning ilmiy ahamiyati yuqori hisoblanadi.

Dunyo mamlakatlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorida raqobatning kuchayib borishi sharoitida tarmoqdagi iqtisodiy samaradorlikni baholashni amalga oshirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Globallashtirish va xalqaro raqobat kuchayib borishining qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini rivojlantirishga ta‘sirini baholash, tabiiy resurslar, inson kapitali, investitsiyalar oqimi va qishloq xo‘jaligi eksporti qiymatining mamlakatlar qishloq xo‘jaligi samaradorligini oshirishdagi ahamiyati, mamlakat hududlari bo‘yicha qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishining nisbiy samaradorligini modellashtirish va prognozlashtirish mazkur ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

O‘zbekiston taraqqiyotida qishloq xo‘jaligi faoliyatini takomillashtirish asosida samarali ishlab chiqarishni rivojlantirishga ahamiyatli e‘tibor qaratilmoqda. Shu bilan bir vaqtda mamlakat xududlari barqaror rivojlanishini ta‘minlashning ustuvor vazifalari belgilangan. “Bu fermer xo‘jaliklarini mamlakat iqtisodiyoti yuksalishiga qo‘shayotgan hissasini yanada oshirish, yetishtiriladigan oziq-ovqat mahsulotlari aholi ehtiyojini qondirishi va respublika agrosanoati tarmoqlarining ichki va tashqi bozor talablariga javob berishini ta‘minlashi zarur”². Mazkur

¹ FAO. In:FAOSTAT-2023. <https://www.fao.org/faostat/en/#data/FS>

² Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021.- 464 bet.

vazifalarning samarali amalga oshirilishi hududlarda ishlab chiqariladigan mahsulotlarning raqobatdoshligini ta'minlash, ularning jahon bozorida eksport salohiyatini yuqoriga ko'tarishni talab etadi. Ushbu maqsadga erishish uchun mehnat, moddiy va moliyaviy manbalardan samarali foydalangan holda ishlab chiqarishning optimal (nisbiy) tarkibini va istiqbolini prognoz qilish modellar tizimini asoslash zarur. Bunday masalalarni bir-biriga bog'langan va muvofiqlashgan holda hal etish uchun zamonaviy matematik usullar negizida statistik modellar tizimini ishlab chiqish, ularni amaliyotga joriy etish – O'zbekiston qishloq xo'jaligida mahsulotlar ishlab chiqarishining nisbiy samaradorligini baholash yangi O'zbekiston strategiyasida amalga oshirishning hozirgi bosqichdagi o'ta dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF–158-son “O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risida”, 2023-yil 12-dekabrdagi PF–205-son “Qishloq xo'jaligida erkin bozor munosabatlarini yanada rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida”, 2023-yil 19-iyundagi PF–98-son “Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash xarajatlarini moliyalashtirishning uzluksizligini ta'minlash to'g'risida”, 2023-yil 10-iyundagi PF–90-son “Ma'muriy islohotlar doirasida qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida”, 2020-yil 29-oktabrdagi PF–6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”, 2019-yil 23-oktabrdagi PF–5853-son “O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi farmonlari, 2024-yil 28-avgustdagi PQ–304-son “Qishloq xo'jaligi korxonalarini qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”, 2024-yil 20-iyundagi PQ–227-son “Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”, 2023-yil 2-avgustdagi PQ–257-son “Qishloq xo'jaligi sohasiga ilg'or raqamli texnologiyalarni joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 19-avgustdagi 515-son “Yer

maydonlarini yangidan o'zlashtirish va qishloq xo'jaligida qayta foydalanishga kiritishda davlat tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar hamda mazkur tadbirlarni moliyalashtirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida", 2024-yil 20-fevraldagi 97-son "Qishloq xo'jaligi yerlari unumdorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2023-yil 3-avgustdagi 330-son "Qishloq xo'jaligi sohasiga ilg'or raqamli texnologiyalarni joriy qilishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mahsulotlar samaradorligini baholashning nisbiylik nazariyasini ilmiy asoslari ko'plab xorijiy va mamlakatimiz agrar soha iqtisodchi olimlari tomonidan tadqiq etilgan. Xorijiy mamlakat olimlaridan A.Smit, D.Rikardo, A.Gaviglio, R.Filippini, F.Madau, L.Zenka, Z.Pan, I.Usolvev, A.Nigroxo va boshqa olimlar ilmiy tadqiqotlarida ishlab chiqarishda daromad, foyda, mehnat unumdorligi hamda samaradorligini tahlil qilish yondashuvlari o'rganilgan.³

O'zbekiston agrar sektori iqtisodiyotini rivojlantirish, tarmoqda bozor islohotlarini chuqurlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish muammolariga S.S.G'ulomov, A.M.Qodirov, T.Farmonov, N.S.Xushmatov, Q.A.Choriyev, F.T.Egamberdiyev va boshqa olimlar tadqiqotlari bag'ishlangan.⁴

³ Gaviglio, A., Filippini, R., Madau, F.A. et al. Technical efficiency and productivity of farms: a periurban case study analysis. *Agric Econ* 9, 11 (2021). <https://doi.org/10.1186/s40100-021-00181-9>

Pan, Z.; Tang, D.; Kong, H.; He, J. An Analysis of Agricultural Production Efficiency of Yangtze River Economic Belt Based on a Three-Stage DEA Malmquist Model. *Int. J. Environ. Res. Public Health* 2022, 19, 958.

Усо́льцев Илья́ Викторович. Показатели и критерии эффективности сельскохозяйственного производства // Вестник ГУУ. 2013. №4.

Nugroho AD, Bhagat PR, Magda R, Lakner Z. The impacts of economic globalization on agricultural value added in developing countries. *PLoS One*. 2021 Nov 17;16(11):e0260043. doi: 10.1371/journal.pone.0260043.29 b.

⁴ Gulomov S.S. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida agrar ishlab chiqarish majmuini rivojlantirish jarayonini modellashtirish.: Iqt.f.n. dis. avtoref. — Toshkent: O'z.R. Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi. BIITI, 2001. - 226.

Qodirov Z. Axborotlar noravshanligi holatida fermer xo'jaliklari rivojlanishini imitatsion modellashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati, 2023 yil Farmonov T.X. O'zbekiston Respublikasida fermer xo'jaligini tashkil etish va rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari.: Iqt.f.dok. avtoref. — Toshkent: 2006.- 50 b.

Choriyev K., Xushmatov N. Dehqon va fermer xo'jaliklari faoliyatini rejalashtirish. — Toshkent: Sharq, 2002. — 29 b.

Mamlakatimizda agrar soha tarmoqlari samaradorligini tahlil qilish jarayonlarini matematik modellashtirish va amaliyotga qo'llashning ilmiy-uslubiy va metodologik asoslari S.S.G'ulomov, T.Sh.Shodiyev, B.Berkinov, B.Begalov, O.Q.Xatamov, B.Xodiyev, D.Muxamediyeva, B.Ro'zmetov, S.Qulmatova va boshqa ko'plab olimlarning ilmiy ishlarida bag'ishlangan⁵.

Yuqorida qayd etib o'tilgan tadqiqotlarga qaramasdan, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning nisbiy samaradorligini aniqlashda matematik modellarini ishlab chiqish nisbatan past darajada. Shu bilan bir qatorda qishloq xo'jaligida bozor munosabatlarini chuqurlashuvi sharoitida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish rivojlanish istiqbolini prognoz qilish variantlarini aniqlashning uslubiy asoslari yetarli darajada tadqiq etilmagan va ishlab chiqilmagan. Shularni hisobga olganda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini nisbiy samaradorligini baholash variantlarini tahlil va prognoz qilish dolzarb vazifalar qatoriga kiradi va bu ushbu tadqiqot ishining maqsad va vazifalari doirasini belgilab berdi.

Dissertatsiya ishining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Termiz davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi bo'lib O'zbekiston qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishining nisbiy samaradorligini statistik baholash bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi.

Tadqiqotning vazifalari:

⁵ Шодиев Т.Ш. Эконометрические модели развития сельского хозяйства. — Ташкент. Фан, 1986-166 с.

Беркинов Б.Б. Эконометрика: o'quv qo'llanma. - Toshkent: Ф, 1990. - 127 б.

Бегалов Б.А., Жуковская И.Е. Информационно- коммуникационные технологии в эффективной организации статистической деятельности в условиях формирования инновационной экономики. Т.: «Фан», 2013.13с.

Xatamov O.Q. Qishloq xo'jalik texnikasi lizingiga investiesiyalar jalb etish jarayonlarini modellashtirish. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi".- T.: TerDU, 2007. -142 б.

Xodiyev B.Ю. O'zbekiston iqtisodiyotida tadbirkorlik rivojlanishini ekonometrik modellashtirish. Iqt.f.dokt.disser. avtorefarati. —T:TDIU, 2000 - 38 б.

Мухамедиева Д.Т. Разработка моделей слабо формализуемых процессов и принятие решений на основе обработки нечеткой информации.: Автореф. дис. док. тех. наук. — Ташкент. АН РУз НТЦ «Современные информационные технологии», 2006. - 35 с.

Рузметов Б. Оптимизация процессов воспроизводства плодородия почвы в хлопководческих хозяйствах: на примере Хорезмской области: дисс. канд. экон. наук: 08.00.13 / Узбек. науч.-производ. объедин. "Кибернетика". - Ташкент, 1992. - 171 с.

Qulmatova S.S. Qishloq xo'jaligida mashina-tractor parklaridan samarali foydalanishni modellashtirish. Iqt.f.f.dokt.disser. avtorefarati. —T:TDIU, 2022 - 28 б.

qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish nisbiy samaradorligiga ta’sir qiluvchi omillarni tahlil qilish, mavjud muammolar va kamchiliklarni aniqlash;

qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini nisbiy samaradorligiga ta’sir qiluvchi omillarni statistik guruhlash;

qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish rivojlanishini statistik modellashtirishning uslubiy yondashuvini asoslash;

qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish faoliyatini tahlil va prognoz qilishning modellar tizimini asoslash;

O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish faoliyatini rivojlanishining iqtisodiy mexanizmlari va xorijiy tajribalarini o‘rganish;

qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi nisbiy samaradorligi ko‘rsatkichlarini prognoz qilish va optimal rivojlanishi variantini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O‘zbekiston iqtisodiyoti, shu jumladan, bir qator viloyatlar qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi tarmoqlari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti bo‘lib qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish nisbiy samaradorligini statistik tahlil qilish va baholash jarayonlaridagi iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida iqtisodiy-matematik modellashtirish, iqtisodiy tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, statistik, korrelyatsion va regression tahlil, ekspert baholash, ilmiy abstraksiyalash va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “ishlab chiqarishning nisbiy samaradorligi” tushunchasining iqtisodiy mazmuni muayyan resurs yoki ishlab chiqarish omilidan foydalanishning samaradorligini baholashda resurslar sarfini mahsulot chiqishi hajmi bilan solishtirish orqali aniqlanuvchi bir resurs sarfiga nisbatan mahsulot ishlab chiqarish darajasining yuqori qiymatini hamda iste’molni qondirish, ishlab chiqarishning maqsadga muvofiqligi, korxonalarining samarali shakllanishini ta’minlash nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan;

hududlarda asosiy qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning nisbiy samaradorligini mehnat sarfi mezoni orqali baholashning ko'p va bir omilli algoritmlari $(1/ALS)(PP/PF) > 1/ALF$ qiymatga muvofiq keluvchi o'zaro bog'liqlik asosida takomillashtirilgan;

Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish hajmini Xolt-Vinters modeli asosida baholash modeli orqali 2026-yilga qadar prognoz qiymatlari aniqlangan;

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi, mehnat resurslari soni va sug'oriladigan ekin maydonlari ta'sirini ifodalovchi ekonometrik model asosida mahsulot ishlab chiqarish hajmining 2027-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga asosiy ta'sir etuvchi omillar ta'sirining statistik modellarini ishlab chiqish hamda xo'jalik faoliyatini nisbiy samaradorligini oshirish yo'llari bo'yicha takliflar asoslangan;

qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining nisbiy samaradorligi mahsulotlar ishlab chiqarishida yer maydoni, mehnat va kapital hajmi bilan o'zaro bog'liqligi chiziqli funksiyasidan foydalangan holda takomillashtirilgan;

hududlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning nisbiy samaradorligini mehnat sarfi mezoni orqali baholashning ko'p va bir omilli algoritmlari ishlab chiqilgan;

qishloq xo'jaligida nisbiy samaradorligi o'zgarish tendensiyalari qisqa va o'rta muddatga prognoz qilingan va baholangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan nazariy-uslubiy xulosa va tavsiyalardan qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni optimal boshqarishda va ularning rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda, shuningdek, mazkur muammoga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari uchun uslubiy asos sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishining nisbiy samaradorligini statistik baholash bo‘yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “ishlab chiqarishning nisbiy samaradorligi” tushunchasining iqtisodiy mazmunini muayyan resurs yoki ishlab chiqarish omilidan foydalanishning samaradorligini baholashda resurslar sarfini mahsulot chiqishi hajmi bilan solishtirish orqali aniqlanuvchi bir resurs sarfiga nisbatan mahsulot ishlab chiqarish darajasining yuqori qiymatini hamda iste‘molni qondirish, ishlab chiqarishning maqsadga muvofiqligi, korxonalarining samarali shakllanishini ta‘minlash nuqtayi nazaridan takomillashtirishga oid nazariy va uslubiy ma‘lumotlardan oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan “Ekonometrika” nomli o‘quv qo‘llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 7-maydagi 149-sonli buyrug‘i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda bir resurs sarfiga nisbatan mahsulot ishlab chiqarish darajasining yuqori qiymatini hamda iste‘molni qondirish, ishlab chiqarishning maqsadga muvofiqligi, korxonalarining samarali shakllanishini ta‘minlash nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan ishlab chiqarishning nisbiy samaradorligi tushunchasiga oid nazariy bilimlarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

hududlarda asosiy qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning nisbiy samaradorligini mehnat sarfi mezonini orqali baholashning ko‘p va bir omilli algoritmlari $(1/ALS)(PP/PF) > 1/ALF$ qiymatga muvofiq keluvchi o‘zaro bog‘liqlik asosida takomillashtirishga oid taklifdan O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi tomonidan “Hududlar qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish dasturi”ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2024-yil 7-avgustdagi 05/06-02-617-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida Surxondaryo viloyatida yer maydonlarini foydalanishga kiritish bo‘yicha dastur ishlab chiqish va mazkur dastur doirasida 2024-yilda 2,7 ming gektar yer maydonini zamonaviy suv tejaydigan texnologiyalarni qo‘llash orqali foydalanishga kiritish,

qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash ko‘rsatkichining 13-14 foizdan yuqori bo‘lishini ta‘minlash imkoniyati yaratilgan;

Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirish hajmini Xolt-Vinters modeli asosida baholash modeli orqali 2026-yilga qadar aniqlangan prognoz qiymatlaridan O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi tomonidan “Hududlar qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish dasturi”ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2024-yil 7-avgustdagi 05/06-02-617-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirish hajmi va boshqa statistik ko‘rsatkichlarning o‘zaro muvofiqligini ta‘minlash imkoni yaratilgan;

O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi, mehnat resurslari soni va sug‘oriladigan ekin maydonlari ta‘sirini ifodalovchi ekonometrik model asosida mahsulot ishlab chiqarish hajmining 2027-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko‘rsatkichlaridan O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi tomonidan “Hududlar qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish dasturi”ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2024-yil 7-avgustdagi 05/06-02-617-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida uzoq muddatli davrda qishloq xo‘jaligida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi, mehnat resurslari soni va sug‘oriladigan ekin maydonlari ta‘siriga oid asosiy parametrlarning o‘zaro muvofiqligini ta‘minlash imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur dissertatsiya ishi natijalari 5 ta xalqaro, 6 ta respublika ilmiy amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tgan va ma‘qullangan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya ishining asosiy g‘oyasi va natijalari, unda ilgari surilgan fikr-mulohazalar yuzasidan jami 9 ta

maqola, jumladan, OAK tavsiya etgan jurnallarda 5 ta ilmiy maqolalar, shundan 2 tasi xorijiy nashrlarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, 9 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan bo'lib, uning hajmi 124 betni tashkil qiladi.